Navoiy viloyatida demografik holat

2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
II. Doimiy aholi soni
III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
V. Aholi migratsiyasi
VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi PF-173-son Farmoniga muvofiq 2026-yil 15-yanvar holatiga ko'ra o'tkazilgan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish natijalari asosida aholi soni hisoblandi.

Shu ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning 1-oktabr holatiga Navoiy viloyatining doimiy aholisi soni **1 196,6** ming kishini tashkil etib, 2025-yilning 1-oktabr holatiga nisbatan **1,3** foizga ko'paygan.

2026-yil yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni **17 533** nafarni, vafot etganlar **3 694** nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **13 839** kishiga teng bo'ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **41** kishini va mamlakatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **1 312** kishini tashkil etdi. Qayd etilgan nikohlar **5 055** birlikni, nikohdan ajralishlar **996** birlikni tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	**1 196,6**	*ming kishi*
Tug'ilganlar soni	**17 533**	*kishi*
Vafot etganlar soni	**3 694**	*kishi*
Xorijdan ko'chib kelganlar	**41**	*kishi*
Xorijga ko'chib ketganlar	**1 312**	*kishi*
Nikohlar soni	**5 055**	*birlik*
Nikohdan ajralishlar soni	**996**	*birlik*

II. Doimiy aholi soni


Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **709,1** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **59,3** %) hamda qishloq joylarda **487,5** ming kishi (**40,7** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **588,7** ming kishini (**49,2** %), erkaklar esa **607,9** ming kishini (**50,8** %) tashkil etmoqda.

1-oktabr holatiga doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	*O'sish sur'ati, % da*
Navoiy viloyati	**1 180,8**	**1 196,6**	**101,3**
Navoiy sh.	204,3	208,4	102,0
Zarafshon sh.	115,7	117,2	101,3
G'ozg'on sh.	9,2	9,3	101,1
tumanlar:			
Karmana	159,3	161,8	101,6
Konimex	49,6	49,5	99,8
Qiziltepa	155,2	157,1	101,2
Navbahor	117,2	118,8	101,4
Nurota	89,7	90,6	101,0
Tomdi	23,5	23,5	100,0
Uchquduq	56,4	56,9	100,9
Xatirchi	200,7	203,5	101,4

Navoiy viloyatida 2026-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **10,9** kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2025-yil 1-oktabrda ushbu ko'rsatkich **10,8** kishini, 2022-yilda esa ushbu ko'rsatkich **10,3** kishini tashkil etgan.

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **17 533** kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **19,7** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **1 061** nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **3 694** kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,1** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, 2025-yilning mos davriga nisbatan **155** nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **17 533** kishini, shundan o'g'il bolalar soni **9 199** kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **52,5**%), qiz bolalar soni **8 334** kishini (**47,5**%) va shahar joylarida **9 740** kishini (**55,6**%), qishloq joylarida **7 793** kishini (**44,4**%) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **3 694** kishini, shundan erkaklar **2 134** kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **57,8**%), ayollar **1 560** kishini (**42,2**%) va shahar joylarida **1 974** kishini (**53,4**%), qishloq joylarida **1 720** kishini (**46,6**%) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **5 055** birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,7** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **445** birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **996** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **6** birlikka kamaygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **5 055** birlikni, shundan shahar joylarida **2 577** birlikni (**51,0**%), qishloq joylarida **2 478** birlikni (**49,0**%) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **996** birlikni, shundan shahar joylarida **546** birlikni (**54,8**%), qishloq joylarida **450** birlikni (**45,2**%) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, birlik



V. Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **13 992** kishini, shu jumladan viloyat boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **13 951** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **41** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **15 401** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **14 089** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **1 312** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	*shundan:*		Jami	*shundan:*	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Navoiy viloyati	**13 992**	**13 951**	**41**	**15 401**	**14 089**	**1 312**
Navoiy sh.	5 380	5 376	4	4 619	4 489	130
Zarafshon sh.	2 011	1 998	13	2 573	2 218	355
G'ozg'on sh.	18	18	-	26	26	-
tumanlar:						
Karmana	2 417	2 417	-	2 294	2 285	9
Konimex	259	258	1	620	275	345
Qiziltepa	726	725	1	974	974	-
Navbahor	726	726	-	857	852	5
Nurota	239	236	3	503	497	6
Tomdi	524	524	-	549	284	265
Uchquduq	835	816	19	975	787	188
Xatirchi	857	857	-	1 411	1 402	9

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko‘rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama’lumotlari

Doimiy aholi soni va uning tarkibiga oid ko‘rsatkichlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 19-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PF-173-son Farmoniga muvofiq 2026-yil 15-yanvar holatiga ko‘ra o‘tkazilgan aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning dastlabki natijalari asosida hisoblangan. Ma’lumotlarning yillar kesimida qiyosiyligini ta’minlash maqsadida o‘tgan yillarning tegishli davrlari bo‘yicha doimiy aholi soni (jinsi hamda shahar va qishloq aholisi kesimida) va aholi zichligi ko‘rsatkichlari ham qayta hisoblangan. Shu vaqtga qadar doimiy aholi soni 1989-yilda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish natijalariga tug‘ilish, o‘lim va migratsiya bo‘yicha yillik ma’lumotlarni qo‘shib borish orqali baholab kelingan. Yillar davomida bunday baholar bilan aholining amaldagi soni o‘rtasida tafovut to‘planib borgan. Bunga asosiy sabab — ro‘yxatga olishda aholining amalda yashab turgan joyi bo‘yicha, tug‘ilish, o‘lim va migratsiya hodisalarining esa doimiy ro‘yxatda turgan yashash joyi bo‘yicha hisobga olinishidir.

O‘tgan davrlar ma’lumotlarini yangi ro‘yxatga olish natijalariga muvofiqlashtirish xalqaro statistika amaliyotida, jumladan BMTning aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olish bo‘yicha tamoyillari va tavsiyalarida qabul qilingan tartib hisoblanadi. Ro‘yxatga olishning yakuniy natijalari e’lon qilingach, ko‘rsatkichlar aniqlashtirilishi mumkin.

Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda tegishli ma’muriy axborot tizimlari o‘rtasida idoralararo elektron ma’lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan.

Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish uchun barcha zarur ma’lumotlar integratsiya yo‘li bilan elektron shaklda olinayotganligi sababli, statistik kuzatuvning alohida shakli tasdiqlanmagan.

Statistika organlari demografik ko‘rsatkichlarni tavsiflovchi ma’lumotlarni shakllantirish uchun boshqa davlat organlari (Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati hamda migratsiyasi to‘g‘risidagi ma’muriy ma’lumotlarni qayta ishlaydi.

Demografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha rasmiy statistika ma’lumotlari quyidagi ma’muriy ma’lumotlar manbalari asosida shakllantiriladi:

- tug‘ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o‘lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko‘chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi.

Metama’lumot uchun havola:

Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati dalolatnomalari va statistik hisob talonlari ma’lumotnomalarini kodlashtirish bo‘yicha qo‘llanma

Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom

Tayyorlash uchun mas’ul:	**Ijrochi:**	**Manzil:**
Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘limi	D. Shirmonova 79 223-07-41 (8571)	Navoiy shahri, A.Temur ko‘chasi 4-uy